

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINING AYRIM MASALALARI

Djumayeva Guzal Axtamovna

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim sifatini oshirishda respublikamizda olib borilayotgan islohotlar, o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, malakali kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining o'rni, talabalar salohiyati, professor-o'qituvchilarning kompetentligi va ta'lim jarayonida xorij tajribasining ahamiyati kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim sifati, talaba, professor-o'qituvchi, nazariya va amaliyot, dual ta'lim.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ

Джумаева Гузаль Ахтамовна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, проводимые в нашей республике по повышению качества образования, организации учебного процесса в соответствии с требованиями времени, роль высших учебных заведений в подготовке квалифицированных кадров, потенциал студентов., компетентность профессоров и преподавателей, и за рубежом в образовательном процессе изучены такие вопросы, как важность опыта.

Ключевые слова: высшее образование, качество образования, студент, профессор-преподаватель, теория и практика, дуальное образование.

SOME ISSUES IN THE QUALITY OF EDUCATION IN UNIVERSITIES

Djumaeva Guzal Akhtamovna

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract: This article discusses the reforms carried out in our republic to improve the quality of education, the organization of the educational process in accordance with the requirements of the time, the role of higher educational institutions in the training of qualified personnel, and the potential of students. , the competence of professors and teachers, and issues such as the importance of experience have been studied abroad in the educational process.

Key words: higher education, quality of education, student, professor-teacher, theory and practice, dual education.

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalar singari ta'lim sohasini ayniqsa oliy ta'lim tizimini isloh qilish, jamiyatimizning turli yo'nalishlari uchun yetuk, malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda va bu borada bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda, xususan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirda qabul qilinishi,[1] Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi,[2] shulardan biri sifatida jahon xalqaro standart talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi – "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi ham o'z mazmuniga ega. [3] Bunday chora-tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad nafaqat milliy darajada, balki xalqaro talablarga javob beruvchi malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir: «Yusuf Xos Hojib bobomiz

aytganlaridek, „Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi“. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta‘lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz zarur».¹

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirda kunda mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish eng muhim va dolzarb, takomillashtirishi borasida keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Oliy ta‘limda sifatni baholash masalasi XX asrning oxirida dunyo miqyosida eng dolzarb masala sifatida maydon-ga chiqdi. Birlashgan millatlar ta‘lim, bilim va madaniyat tashkiloti –YUNESKO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) tomonidan 1998 yilda o‘tkazilgan konferensiyada butun dunyo deklaratsiyasi qabul qilindi va uning 11-moddasi “Sifatni baholash” deb nomlandi. Bunda oliy ta‘lim sifati ko‘p o‘lchamli konsepsiyadan iborat ekanligi ta‘kidlandi. Ushbu konsepsiyada o‘quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot ishlari, profes-sor-o‘qituvchilar, talabalar, o‘quv binolari, moddiy-texnika bazasi, jihozlar, jamiyat uchun sifatli kadrlar tayyorlash, akademik muhit sifatini belgilovchi dasturlar keltirilgan. Shu-ningdek, sifatni baholaydigan tashkilotlar to‘g‘risida ham ma‘lumotlar beriladi. Lekin, “oliy ta‘lim sifati” tushunchasini yoritib berish va uning ijtimoiy-iqtisodiy izohi bo‘yicha yakuniy to‘xtamga kelinmagan².

Mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu tizimning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz va xorijda soha mutaxassislari va olimlari o‘zlarining ilmiy izlanishlarini olib borishgan.

Maqolaning nazariy va metodologik asosini xorij olimlaridan Dronishines

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/sifatli-talim/>

² Вахабов, А., & Хўжаханов, М. (2023). “ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИ” ИЛМИЙ КАТЕГОРИЯСИ ВА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОЎЯТИ. Iqtisodiyot Va ta‘lim, 24(2), 335–341. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a10

N.P., Potashnik M.M., Tretyakov P.I., Lazareva B.S., Makarova I.K., Panova A. O., kabi olim va mutaxassislar o'zlarining ilmiy izlanishlari va asarlarida olib borishgan.³

Ta'lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyatni samarali qo'llashning nazariy va amaliy muammolarini O'zbekiston olimlaridan K.X.Abduraxmonov, L.V.Peregudov, M.X. Saidov, D.N. Raximova, A.N. Aripov, , N. Kasimova, B.Yu.Xodiyev va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan.

Oliy ta'limda sifat ko'p qirrali, ko'p darajali va dinamik tushuncha bo'lib, u ta'lim modelining mazmuniy birligiga, muassasaning missiya va vazifalariga hamda o'ziga xos ma'lum standartlarga bog'liqdir[4].

Ta'lim va ta'lim sifatini tadqiq qilgan M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovalarning fikricha, ta'lim boshqaruvi fanning nazariy-metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv, milliy-hududiy va natijaga asoslangan yondoshuvlar tashkil etadi[6]. Mazkur yondashuvlar ta'limda samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

K.Kampbel va K.Roznianing fikricha, sifat baholanmaydi va o'lchanmaydi, balki ilm ahli tomonidan sifatning qayerda va qachon ta'minlanishi tan olinadi [8].

Iqtisodchi olim A.V.Vaxabovning fikricha, oliy ta'lim va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikning kuchayib borishi oliy ta'lim sifatiga bo'lgan talablarni o'z-o'zidan (avtomatik tarzda) shakllan-tirgan. Bunda oliy ta'lim iqtisodiyotning bir tarmog'i bo'lib hisoblangan va oliy ta'lim natijalari iqtisodiyot tarmoqlari talablariga javob berishi talab etilgan. Chunki, o'zgaruvchan sivilizatsiyalar va globalashuv davrida mam-lakatning raqobatbardoshligi ko'p

³ Дронишинец Н.П. Проблемы управления системой высшего образования в Японии // Университетское управление. - 1. - 2002. - С. 70-79, .М.Поташника, В.С.Лазарева. Управление развитием школы: пособие для руководителей образовательных учреждений // –М.: Новая школа, 2015, Макарова И.К. Управление человеческими ресурсами: пять уроков эффективного HR менеджмента. - М.: Дело, 2007. - 232 с, Панова А. О структуре управления и принятии решений в Российских вузах // Вопросы экономики. - 2007. - 6. - С. 94-105, Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. - Т.: Молия, 2002. - 184 б.

jihatdan oliy ta'lim sifati darajasiga bog'liq, u qan-chalik yuqori bo'lsa, davlatning xalqaro bozor-dagi raqobatbardoshligi shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu omillar oliy ta'limni bozor me-xanizmlariga to'liq bo'ysunadigan sohaga aylan-tirdi, iqtisodiy sohalar bilan aloqasida mu-himahamiyat kasb etdi va bugungi kunda ta'lim sifati bozor orqali namoyon bo'lmoqda[10].

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli orqali oliy ta'lim sifa-tining umumiy va o'ziga xos bo'lgan jihatlar aniqlandi. Abstraksiyalash usuli yordamida turli xil fikrlarni umumlashtirilgan natijalari shakllandi, shuningdek nazariy-emperik metodlar, analiz va sintez, taqqoslash, deduksiya usullaridan foydalanildi. Bu esa oliy ta'lim sifatini ta'minlash bilan o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy hodisalarning muayyan guruhini kuzatishga va uning asl mazmunini bilib olishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat (tarmoq) ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini xorij amaliyotidan kelib chiqib takomillashtirib borish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda ularni mukammallashtirib borish davr talabi hisoblanadi. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida quyidagi bir qator muammolar ko'zga tashlanadi:

Birinchidan, hozirgi kunda oliy ta'limdagi barcha talabalarni oliy ta'lim darajasida bilimli salohiyatli deya olmaymiz, chunki bir yo'nalishda yoki guruhda tahsil olayotgan talabalarning bilim salohiyati turlicha, OTMda o'qish uchun bilim salohiyati yetmasada moliyaviy salohiyati buni ko'taradi, ya'ni tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt to'lay oladi va aksincha, bilimlarni egallashga salohiyatli talabgorlarning iqtisodiy imkoniyatining yo'qligi, ular aksariyatining oliy ma'lumot olishiga to'siq bo'ladi.

Ikkinchidan, bilamizki, OTM kredit-modul tizimiga o'tib bormoqda hamda ta'lim jarayoni HEMIS(Higher Education Menegment Information System) dasturida olib borilmoqda. Bu hozirgi jarayonda kredit-modul tizimi ham, HEMIS

dasturi ham to'liq talablarga javob beradigan darajada ishlayapti deb ayta olmaymiz. HEMIS dasturi bo'yicha o'qituvchi-professorlarga har o'quv yilida master-klasslar o'tilishi lozim, chunki HEMIS dasturining o'zi ham takomillashtirilib borilayapti.

Kredit-modul tizimi to'liq talab darajasida ishlagina kafedralarda o'qituvchi-professorlar o'z ustida yanada ko'proq ishlaydilar, raqobatlashadilar va (shunga muvofiq oylik maosh olishlarini bilgan holda) talabalarni ko'proq qamrab olishga harakat qilishadi.

Uchinchidan, yana bir muammolardan biri bu moddiy-texnik ta'minot bilan ta'minlanganlik darajasi. Aksariyat OTMning o'quv binolari sig'iminining yetishmasligi, ya'ni tabaqalashtirilgan to'lov-kontarkt asosida o'qiyotgan talabalar sonining oshishi hisobiga OTM qo'shimcha va(yoki) ijaraga olingan binolarda o'quv jarayonlari tashkil etilmoqda. Bu esa OTMda tahsil olayotgan talabalarning hammasiga ham bir xil zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan o'quv(ma'ruza) xonalarida tahsil olish imkoniyatini yaratmaydi. Bu esa professor-o'qituvchilarning o'quv mashg'ulotlarining samarali o'tishiga hamda talabalarning o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik masalasi. Professor-o'qituvchilarni ham ikki toifaga ajratishimiz mumkin bo'ladi, ya'nikim an'anaviy dastur asosida dars o'tadigan o'qituvchilar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida interfaol usullarni qo'llagan holda dars mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchi-professorlar. Bilamizki, interfaol usullarni qo'llash albatta o'qituvchidan ma'lum darajada fanga(mavzuga) ilmiy-ijodiy ham iqtisodiy jihatdan tayyorgarlikni talab qiladi, ammo har ikkala toifa o'qituvchi-professorlar bir xil maosh oladi, moliyaviy manfaatdorlik bo'lmaganidan keyin o'z ustida ishlamay qo'yadi. Bu ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi.

Beshinchidan, nazariya bilan amaliyotning bir-biridan uzilib qolganida, darslik, o'quv qo'llanmalarining hozirgi zamon yangiliklari va o'zgarishlarni qamrab olmayotganligi, bu esa nazariy bilimlar amaliyotdan orqada qolishiga ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Ish beruvchilarning OTM bilan

hamkorligining yo'qligi, yoki bo'lsada ayrim yo'nalishlardagina ma'lum foizlarni tashkil etadi xolos.

Ta'kidlash joizki, OTMlarda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilgan dual ta'limni rivojlantirish va yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Oltinchidan, OTMda talabalar tomonidan bajariladigan kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, malakaviy amaliyot mavzularinig yillar davomida bir xil shakl va mazmunda saqlanib qolayotganligi, bu borada talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining susayishi ko'zga tashlanadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada OTMning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sir qiladigan ayrim muammolari bayon etilgan bo'lib, ularni bartaraf etishda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- O'qituvchi-professorlarning pedagogik mahoratini, kasbiy kompetentligini oshirish maqsadida xalqaro tajribalarga (UNISEF, UNESCO, xorijiy 500 talikka kirgan OTM tajribalariga) asoslangan master klasslarda ishtirokini ta'minlash;

- OTMlarda dual ta'limni rivojlantirish;

- OTMda talabalar tomonidan bajariladigan kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, malakaviy amaliyot mavzularning tarkibiy jihatdan yildan-yilga takomillashtirilib, yangilanib borilishi ta'minlash;

- malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

Yuqoridagi muammolar va takliflarning joriy etilishi OTMda professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, bunda alternativ usullarni qo'llash hamda tinimsiz izlanishlarni yo'lga qo'yish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi. Bu o'z navbatida pedagoglarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Shuningdek, talabalar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti takomillashadi; OTMda tayyorlanayotgan kadrlarning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligi ortadi; ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi integratsiya kuchayadi; ilmiy tadqiqot natijalarining samaradorligi ortadi.

Oliy ta'lim sohasida sifatning ta'minlanishi provardda yetuk kadrlar tayyorlashga sabab bo'ladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг —Таълим тўғрисидаги ЎРҚ-637-сонли Қонуни. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/sifatli-talim/>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4545884>
4. Дронишинец Н.П. Проблемы управления системой высшего образования в Японии // Университетское управление. - 1. - 2002. - С. 70-79.
5. Vlasceanu L., Grunberg L., Parlea D. Quality Assurance and the Development of Course: A Glossary of Basic Terms and Definitions.- Bucharest: UNESCO, 2004.—p.178.
6. М.М.Поташника, В.С.Лазарева. Управление развитием школы: пособие для руководителей образовательных учреждений./—М.: Новая школа, 2015.
7. Каримов А.А., Перегудов Л.В. Основы системы мониторинга и управления качеством высшего образования. —Т., 2003.
8. Campbell C., Rozsnyai C. Benchmarking for Higher Education Programmes. —Bucharest: UNESCO-CEPES, 2002. —p.223.
9. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. - Т.: Молия, 2002. - 184 б
10. Вахабов, А., & Хўжаханов, М. (2023). “ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИ” ИЛМИЙ КАТЕГОРИЯСИ ВА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(2), 335–341. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_gygytttyy24_iss2/a10